

“TBC Bank” ATB ning “23 ta omadli kredit” yangi yil dasturini o‘tkazish qoidalari

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Dastur tashkilotchisi;
4. Dasturda ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilar huquqlari va majburiyatlari;
6. Bank huquqlari va majburiyatlari;
7. Javobgarlik;
8. Nizolarni hal etish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “TBC Bank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi) “23 ta omadli kredit” yangi yil dasturining (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Qoidalari Bank Mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlarini va tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Dastur Qoidalari lotereya emas yoki Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq holda, Dastur ishtirokchilari uchun mol-mulk xavfini yuzaga keltiruvchi tavakkalchilik asosidagi o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan biror-bir to‘lovni kiritishi bilan bog‘liq emas.

1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.

1.4. Dasturning boshlanish sanasi: 2022 yil 1 dekabr; Dasturning tugash sanasi: 2022 yil 31 dekabr. Dasturning amal qilish muddati: Boshlanish sanasidan boshlab tugash sanasigacha bo‘lgan muddat davomida amal qiladi.

1.5. Dasturni o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.

1.6 Dasturning amal qilish muddati davomida istalgan summaga yangi onlayn Mikroqarz olishga muvaffaq bo‘lgan va O‘yin kunigacha bu Mikroqarz bo‘yicha to‘lovni kechiktirmagan (grafik bo‘yicha birinchi to‘lovni amalga oshirgan) Bankning har qanday verifikatsiyalangan mijozi Dastur Ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

1.7 Bankning xizmatlari va mahsulotlarini olish, ulardan foydalanish, shu jumladan onlayn Mikroqarz mahsulotini olish tartibi va shartlari Bankning Bosh shartlari (keyingi o‘rinlarda "BSh" deb yuritiladi) va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan va/yoki Bankning mobil ilovasi orqali ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan Bank mahsulotlarining boshqa shartnomalari bilan tartibga solinadi.

1.8. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasidagi “Kredit olish” tugmasini bosish orqali Dastur amal qilish muddati davomida ushbu Dastur shartlarini avtomatik ravishda qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
Dastur	“TBC Bank” ATBning “23 ta omadli kredit” dasturi
Bank Mijozi	Bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Ishtirokchi	Dastur ishtirokchisi sifatida mazkur Qoidalarning shartlariga muvofiq bo‘lgan Bank mijozi.
Ilova	AppStore va Playmarket platformalarida ishlovchi qurilma-smartfonlarda foydalanish mumkin bo‘lgan TBC UZ mobil ilovasi.

Mikroqarz	Bank mahsuloti “TBC Bank” ATBning Onlayn Mikroqarz shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan taqdim etiladigan onlayn mikroqarz.
Dam olish kunlari	Dam olish kunlari ushbu Qoidalarning amal qilish muddati davomidagi har kalendar Shanba va Yakshanba kunlari hisoblanadi.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI

3.1. Bank Dastur tashkilotchisi hisoblabadi.

3.2. Bankning rekvizitlari: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B-uy. Telefon: +99878 777 2727. Pochta: contact@tbcbank.uz

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI

4.1. Ishtirokchi bo‘lish uchun Bankning Mijozi ushbu Qoidalarning 1.6-bandida belgilangan shartlarga rioya etishi zarur.

4.2. Dasturning har bir Ishtirokchisiga Yutuq o‘yinida bitta imkoniyat – Dasturning amal qilish muddati mobaynida ma’qullangan Mikroqarz bo‘yicha amaldagi kreditni Bank tomonidan to‘liq qoplash taqdim etiladi. Bitta mijozga faqat bitta imkoniyat beriladi.

4.3. Mijoz yangi kreditni rasmiylashtirgandan so‘ng Dasturning amal qilish muddati mobaynida kreditni oshirish xizmatidan foydalanib kredit summasini oshirishi mumkin. Qarzning umumiy summasi o‘yinda ishtirok etadi.

4.4. Mijoz o‘yinda g‘olib bo‘lgan hollarda Bank qo‘shimcha kreditni hisobga olgan holda Mikroqarzning to‘liq summasini qoplab beradi.

4.5. G‘oliblar 2023 yil 12 yanvarda TBC bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tasodifiy raqamlar generatori tomonidan aniqlanadi.

5. ISHTIROKCHILAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- Bank qoidalari va shartnomalarida belgilangan hajmda va tartibda Dastur to‘g‘risida ma’lumot olish;

- ushbu Qoidalarning 1.6-bandiga rioya qilgan holda, ushbu Qoidalarga muvofiq Ishtirokchi maqomini olish;

- Mikroqarz olishni rad etish orqali ushbu qoidalarga muvofiq taqdim etilgan chegirmadan voz kechish.

5.2. Ishtirokchi ushbu Dastur qoidalari bilan tanishishi shart. Bank mijozining Dasturda ishtirok etishi avtomatik tarzda Bank mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishganini va to‘liq roziligini bildiradi.

6. BANK HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank Dasturni amalga oshirishi, shuningdek ushbu Qoidalarga muvofiq Yutuqni o‘ynash, shuningdek yutish imkoniyatini taqdim etish majburiyatlarini bajarishi shart.

6.2. Ushbu Dastur 1.4-bandiga muvofiq butun Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, ushbu Dasturning amal qilish muddatini bir

tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda Bank tomonidan mijozlarga istalgan aloqa kanallari orqali xabar beriladi.

6.3. Bank Dastur ishtirokchilarini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida Dasturni amalga oshirish uchun anketalar yoki boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash orqali ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash huquqiga ega.

6.4. Bank o'yin shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish va Dastur haqidagi qo'shimcha axborotni <https://tbcbank.uz/> Internet saytida, shuningdek Bank ofislarida joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.5. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz chegirmaga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank asosli ravishda mijozni noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik harakatlarini amalga oshirayotgan deb hisoblasa, Bank Mijozni ushbu Qoidalar shartlarini bajarishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Biroq, Bank: (a) har qanday chegirmalarni bekor qilish; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki chegirmaga ega bo'lishini taqiqlash; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklash; va/yoki (d) har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalarga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlarini suiiste'mol qilayotganligi borasida qaror qabul qilgan bo'lsa yoki har qanday holatda uning hisobini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

- (i) bir nechta hisobvarag'lar ochish;
- (ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
- (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarning har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
- (iv) hisobvarag'ning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqi bilan ta'minlash.

7. JAVOBGARLIK.

7.1. Bankning imkoniyat berish majburiyati mijozga yangi Mikroqarz hisoblangan vaqtdan boshlab, o'yin bo'yicha esa – o'yin o'tkazilgandan va natijalari Bankning aloqa kanallarida e'lon qilingandan so'ng bajarilgan deb hisoblanadi.

7.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.

7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.4. Agar uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan harakatlari sabab Bank ushbu Qoidalarda belgilangan shartlarni bajara olmasa, Bank javobgar bo'lmaydi.

7.5. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozni o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.



8.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 8.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro'yxatdan o'tgan manzilida hal qilinadi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Qoidalar 01.12.2022 yildan kuchga kiradi va 13.01.2023 yilgacha, jumladan shu kuni ham amal qiladi.

9.2. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-sayti - www.tbcbank.uz da joylashtirilgan.

9.3. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytda (yuqoridagi havolada) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.4. Bank mijozi TBC UZ mobil ilovasining "Teskari aloqa" bo'limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.